



## AYRIM VITAMINLARNING INSON ORGANIZMDAGI AHAMIYATI

**Tohirov Shohjahon Zohidjon o`g`li**  
*Samarqand Davlat Tibbiyot Universitet,*  
*Pediatriya fakultiti 5-kurs studenti*

**Annotatsiya:** Ovqatdagi oqsil, yog`, uglevod va meniral tuzlarga kirmaydigan, organizm uchun energiya manbayi hisoblanmaydigan, biroq modda almashinuvi va o'sish protsesslarini boshqarib turish uchun zarur bo`lgan maxsus moddalar-Vitaminlardir. Moddalar almashinuvining buzilishi ko`pincha organizmga vitaminlarning kam qabul qilinishi, ovqat tarkibida bo`lmasligi yoki ularning organizmda hazm bo`lishi buzilishi bilan bog`liqdir. Vitaminlar moddalar almashinuvini bevosa boshqarmasdan, bilvosita tarkibiga kiradigan fermentlar orqali boshqaradilar.

**Kalit so`zi:** Tiamin, askorbin kislota, retinol, tokoferollar

Fiziologik ta`siri bo`yicha vitaminlarni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin:

- 1.Organizmning umumiyl rezistentligini oshiruvchi vitaminlar: B<sub>1</sub>,B<sub>2</sub>,PP,A,C.
- 2.Antigemorrogik vitaminlar: C,R,K.
- 3.Antianemik vitaminlar: B<sub>12</sub>,C,folat kislota.
- 4.Antiinfektion vitaminlar: A,C.
- 5.Ko`rishni boshqaruvchi:A,B<sub>2</sub>,C.

Ayrim vitaminlarning inson organizmda ahamiyati va roli:

□ Vitamin B<sub>1</sub> malekulasida aminogruppa bilan oltingugurt saqlagani uchun Tiamin dib nomlangan.Ovqat tarkibida bu vitamin bo`lmasa, odamlarda Beri-beri deb yuritiladigan avitaminoz paydo bo`ladi.Odam vitamin B<sub>1</sub> bo`lmagan ovqatni 30-90 kun iste`mol qilgandan keyin kasallanishi kuzatilgan.Kasallikning boshlarida yengil charchash,ishtahaning yo`qolishi, oyoq og`rig`i kabi simptomlar paydo bo`ladi.Keyin tez sezuvchanlik,qo`l-oyoq falaji hatto nafas muskullari falajlanib,bemor o`limiga sabab bo`lishi mumkin.B1 avitaminozida modda almashinuvining buzilish sababi shuki organizmda karboksilaza va degidraza fermentlarning aktiv gruppasi vitamin B<sub>1</sub> dan hosil bo`ladi.

□ Vitamin C boshqacha aytganda,askorbin kis. yani skorbin paydo bo`lishiga qarshi modda.U oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarda qatnashadi,prolin va lizinning gidroksillanishida,buyrak usti bezi garmonlari sentizida ishtirot etadi.Avitaminoz C da qon-tomirlar mo`rt bo`lib teri ostiga mayda qon quyiladi,milklar qonaydi,suyak to`qimasi g`ovak,sinuvchan bo`lib qoladi,yuqumli kasallikka qarshi kurashish chidamliligi kamayadi.





□ Vitamin A (retinol) ning organizmda bajaradigan vazifasini 2 guruhgaga bo`lish mumkin:fotoresepsiya va yorug`lik sezish jarayonida ishtiroki;vitaminning strukturaviy vazifalari (o`sish,reproduksiya,hujayraning proliferatsyasi,ixtisoslashishi va boshqalar).Vitamin A erkaklarda spermatogenezni,ayollarda homiladorlikni me`yorda o`tishi,nuklen kis. va oqsillar sentizi hamda immun sistemaning hamma zanjirini yuqori darajada barqaror saqlash uchun zarur.Organzmda vitamin A yetishmasligining dastlabki simptomasi shapko`rlikdir.Buning sababi A gipovitaminozida ko`z to`r pardasining tayoqchalaridagi ko`rvu purpuri kamayadi,chunki ko`rvu purpuri vitamin A xosilasi bilan opsin oqsilining birikishidan hosil bo`ladi.Avitaminoz A da bolalarining o`sib rivojlanishdan ortda qolishi,ko`z muguz qavatini qurushi kabi holatlar kuzatiladi.

□ Vitamin E metil guruh soni va joylashishi bilan farq qiluvchi tokofiollar yig`indisi.Bu vitamin ko`payish uchun zarur.Ovqat tarkibida vitamin E bo`lmasa urug`donda spermatozoidlarning normal yetilishi va normal homiladorlik,bola emizish va uning yashab qolishi mumkin emas.Tug`maydigan ayollar ovqatidagi vitamin E miqdorini oshirib,ularni tuzatish xodisalari meditsinada kuzatilgan.Hozirgi kunda vitamin E tomonidan tabiiy killer hujayralar aktivligini oshirilishi uning o`smalarga qarshi tasirni o`rganishga bo`lgan qiziqish tobora ortgan.E avitaminozda jinsiy Sistema funksyalari buzilishidan tashqari,ko`ndalang-targ`il mushaklar ham zararlanadi.

### Adabiyotlar:

1. Biologik kimyo.Sobirova R.A.,Abrorov O.A.,Inayatova F.X. — ‘Yangi asr avlod’i’ 2006.
- 2.Fiziologiya. Alyaviya O.T,Qodirov Sh.K,Nishanova A.A---Toshkent 2019.
3. NORMAL FIZIOLOGIYA Qodirov A. ToshkentAbu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.
4. Одам физиологияси. Акад. Е. Б. Бабский таҳрнри остида. В. Раҳимов ва Т. Фуломов тарж. «Медицина», 1972,

